



FAYZULLA XO‘JAYEV

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 4-kurs talabasi

Abdullayev Jaloliddin

ANNOTATSIYA. Atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisi, "Yosh buxoroliklar" partiyasining rahbarlaridan biri Fayzulla Xo‘jaev 1896 yil 1 iyulda Buxoro shahrida yirik savdogar oilasida tug‘ilgan. U yoshligida eski maktabni bitirib, Buxoro madrasasida o‘qigan. 1907—1912 yillarda F.Xo‘jaev Moskvada shaxsiy o‘qituvchilardan ta‘lim olgan. 1913 yildan jadidlar safida faoliyat ko‘rsatgan va xalq orasida ma‘rifat tarqatish bilan shug‘ullangan.

Kalit so‘zlar: Siyosat, monarxiya, madrasa, inqilob, mustamlaka, partiya, maorif, madaniyat, xorij, quloq.

Kirish

Buxoroda savdogar oilasida tug‘ilgan. Buxoro madrasasida 2 yil tahsil olgach, 1907—1912-yillarda Moskvada xususiy maktabda o‘qigan. Buxoroga qaytgach, 1912-yildan „Yosh buxoroliklar“ partiyasining, 1913-yildan partiya Markaziy Qo‘mitasining a‘zosi bo‘ldi. Otasidan meros qolgan katta boylikni yangi usul maktablari ochishga, „Yosh buxoroliklar“ siyosiy faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlashga sarfladi. 1917-yildan boshlab Fayzulla Xo‘jaev va Fitrat partiyaning so‘l qanotiga boshchilik qilib, Buxoroda avval konstitutsion monarxiya, so‘ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar. „Yosh buxoroliklar“ Buxoro amiri tomonidan ta‘qib qilingach, Xo‘jaev va uning safdoshlari Buxoroni tark etishga majbur bo‘lishdi. 1920-yil 14 sentabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati — Xalq Nozirlar Sho‘rosi tuzilib, Xo‘jaev hukumat boshlig‘i qilib saylandi. BXSR tashqi ishlar noziri (1920—22), harbiy ishlar noziri (1921—24), ichki ishlar noziri (1922), BXSR Mehnat va mudofaa kengashi raisi (1922—24). Shuningdek, Sharqiy Buxoro Inqilobiy harbiy kengashi raisi (1923—24), SSSR Harbiy Dengiz ishlari xalq komissarligining O‘zbekiston SSR bo‘yicha rasmiy vakili (1925-yildan). Otasidan meros qolgan katta boylikni yangi usul maktablari ochishga, yosh buxoroliklar siyosiy faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlashga sarfladi. 1917 yildan boshlab F.Xo‘jaev va Fitrat partiyaning so‘l qanotiga boshchilik qilib, Buxoroda avval konstitutsion monarxiya, so‘ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar. Yosh buxoroliklar amir tomonidan ta‘qib kilingach, F.Xo‘jaev va uning safdoshlari Buxoroni tark etishga majbur bo‘lishdi. 1920-yilda Turkistonda



muhojirlikda bo'lib, "Yosh buxoroliklar" partiyasining Turkiston byurosini tashkil qilgan. F.Xo'jaev tomonidan tuzilgan partiyaning dasturi shariat asosida bo'lib, xalqning milliy an'analari va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda Buxoroda xalq demokratik respublikasini tashkil etishni maqsad qilib qo'ygan edi. Buxoro amiri taxtdan ag'darilgach va hokimiyat Yosh buxoroliklar qo'liga o'tgandan so'ng F.Xo'jaev hukumat rahbari etib saylanadi. Bu lavozimda u mustaqil siyosat olib borishga, Rossiya va xorijiy mamlakatlar bilan teng muloqot qilishga intilgan. 1922-yilda u Germaniyaga chet el savdo kompaniyalari va yirik savdogarlar bilan shartnoma tuzishga borgan. 1925 yilda F.Xo'jaev O'zbekiston Xalq nozirlari kengashining raisi etib saylandi. U o'z faoliyatida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirishga intildi. F.Xo'jaev sovet tuzumi tomonidan milliy ziyolilarning faoliyatini cheklash siyosatiga qarshi chiqdi. U uzoq yillar davomida markazning tazyiqi ostida ishlashga majbur bo'ldi. F.Xo'jaev hukumat rahbari sifatida O'zbekistonning xalq xo'jaligi (paxtachilik, irrigatsiya, kapital qurilish, chorvachilik)ni rivojlantirishga, maorif va madaniyatni ravnaq toptirishga harakat qildi, biroq yangicha tUSDagi mustamlaka sharoitida bu intilishlarning befoyda ekanini keyinroq anglab yetdi. F.Xo'jaev BXSРning mustaqil ichki va tashki siyosat yuritishiga, iqtisodiy islohotlar o'tkazish va demokratik erkinliklarni joriy kilishga aloxida e'tibor qaratib, Sovet Rossiyasidan tashqari Eron, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy, Ozarbayjon, XXSR, shuningdek, Germaniya va Yaponiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. U talabalarni xorijga junatib o'qitishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. F.Xo'jaev o'z faoliyati davomida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirishga intildi. U VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi va O'zbekiston KP MKga nisbatan muxolifat mavqeida turgan «o'n sakkizlar guruhi» (1925 yil noyabr)ga xayrixoh bo'lgan. «Quloq»larni sinf sifatida tugatish siyosatini yoqlamagan. O'zbekistonda yoppasiga chigit ekilishi paxta yakkahokimligiga olib keladi, deb hisoblagan. O'zbekistonda zamonaviy sanoat inshootlari qurilishida tashabbuskor bo'lgan. F.Xo'jaev davlat arbobi, tarixchi va iqtisodchi olim, publitsist jurnalist sifatida boy ilmiy meros qoldirgan. Uning «Buxoro inqilobining tarixiga materiallar» (1926), «Buxorodagi revolyutsiya va O'rta Osiyoning milliy chegaralanishi tarixiga doir» (1932) kitoblari, «BXSРdagi iqtisodiy ahvol» (1924), «Yosh buxoroliklar to'g'risida» (1926), «Jadidlar» (1926), «Bosmachilik» (1930) maqolalarida O'zbekiston tarixining XX asr 1-choragidagi jiddiy muammolar ko'rsatilgan. F.Xo'jaev 1937 yil 9 iyulda Moskvada qamoqqa olindi. O'nta Sovetlarga qarshi «O'ng trotskiychi blok» faoliyatiga qo'shilganligi hamda «Milliy



ittihod» tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qilganlik, «bosmachilik» harakati va qo‘rboshilarni qo‘llab- quvvatlaganlik, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa o‘zbek ziyolilariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlik kabi ayblar qo‘yildi va otishga hukm qilindi. Hukm Moskva atrofidagi Butovo katlgohida ijro etilgan. F.Xo‘jaev asarlari va u haqidagi tadqiqotlar nashr etildi. «Buxoroning jin ko‘chalari» (A. Muxtor) qissasi, «Inqilob tongi» (K. Yashin) dramasi, «Men yashashni istayman» (N. Naimov) roman-xronikasi va boshqa asarlar F.Xo‘jaev faoliyatiga bag‘ishlangan."

"Xo‘jayev BXSРning mustaqil ichki va tashki siyosat yuritishiga, iqtisodiy islohotlar o‘tkazish va demokratik erkinliklarni joriy qilishga alohida e‘tibor qaratib, Sovet Rossiyasidan tashqari Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Xitoy, Ozarbayjon, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, shuningdek, Germaniya va Yaponiya bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. U talabalarni xorijga jo‘natib o‘qitishning tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan. O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasi (Revkom) — Muvaqqat ishchidehqon hukumati raisi (1924-yil noyabr — 1925-yil fevral), O‘zSSR XKS raisi (1925-1937), SSSR MIQ raislaridan biri. Xo‘jayev o‘z faoliyati davomida o‘zbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirishga intildi. U VKP(b) MQ O‘rta Osiyo byurosi va O‘zbekiston KP MQga nisbatan muxolifat mavqeida turgan „O‘n sakkizlar guruhi“ (1925-yil noyabr)ga xayrixoh bo‘lgan. „Quuloq“larni sinf sifatida tugatish siyosatini yoqlamagan. O‘zbekistonda yoppasiga chigit ekilishi paxta yakkahokimligiga olib keladi, deb hisoblagan. O‘zbekistonda zamonaviy sanoat inshootlari qurilishida tashabbuskor bo‘lgan. Chex adibi Egon Ervin Kish Fayzulla Xo‘jayev haqida shunday yozgan edi: Buxoroga kelganimdan keyin meni Fayzulla Xo‘jayev qiziqitirdi. Fayzulla Xo‘jayevning boshiga shunchalik ko‘p oltin va‘da qilingan ediki, dunyodagi biror bir bosh shunchalik yuqori narxlanmagan edi. Xo‘jayev 1937-yil 9 iyulda Moskvada qamoqqa olindi. Unta Sovetlarga qarshi, „O‘ng trotskiychi blok“ faoliyatiga qo‘shilganligi hamda „Milliy ittihod“ tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qilganlik, „bosmachilik“ harakati va qo‘rboshilarni qo‘llab-quvvatlaganlik, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa o‘zbek ziyolilariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlik kabi ayblar qo‘yildi va otishga hukm qilindi. Hukm Moskva atrofidagi Butovo qatlgohida ijro etilgan. 1965-yil 6 martda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi Xo‘jayevni aybsiz deb topdi va oqladi. Natijada 1967-yil 28-fevralda O‘zbekiston Kompartiyasi MK va O‘zSSR Ministrlar Soveti „Fayzulla Xo‘jayev xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida“ qaror qabul qilgan. O‘zbekistonda uning 100 yillik yubileyi nishonlandi (1996).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. " Q.Rajabov. Fayzulla Xo‘jayev. Toshkent Abu matbuot-konsalt 2011.



2. Qahramon Rajabov. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. “Fayzulla Xo‘jayevning nomi Rossiyada ochilgan Repressiya qurbonlari xotira devoridan joy oldi“ (2018-yil 8-noyabr). Qaraldi: 2023-yil 31-iyul.”
4. Fayzulla Xo‘jayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar, T., 1997;
5. O‘zbekistonning yangi tarixi, 2kitob [O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida], T., 2000;
6. Eshonov O. E., Fayzulla Xo‘jayev, T., 1973.